Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 18-avgust, № 167 (9338) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

QADIMIY XORAZMDA YANGI O‘ZBEKISTONNING BUNYODKORLIK VA YANGILANISH RUHI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 17-avgust kuni Xorazm viloyatiga tashrif buyurib, hududda sanoat, ta’lim, transport, turizm va boshqa sohalarda amalga oshirilayotgan yangi loyihalar hamda yaratilgan infratuzilma bilan tanishdi. Shuningdek, bir qator yangi loyihalarni ishga tushirish va qurilishiga start berish marosimida qatnashdi.



Keyingi yillarda Xorazm vohasiga kelayotgan mehmonlar oqimi bir necha karra ortdi. Turistik salohiyatni ishga solishga qaratilgan tashabbuslar doirasida xalqaro standartlarga javob beradigan transport-logistika infratuzilmasi yaratilayotgani e’tiborga molik.

Xususan, Urganch xalqaro aeroportida rasmiy delegatsiyalarga xizmat ko‘rsatadigan terminal bunyod etilib, yangi aerodrom majmuasi rekonstruksiyasining birinchi bosqichi jadal davom ettirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrifi ana shu loyihalar bilan tanishishdan boshlandi.

Aeroport 1960-yilda ishga tushgan. Unga 1992-yilda xalqaro maqom berilgan. Umumiy maydoni 285 gektardan ortiqni tashkil etadigan bu majmua o‘tgan yillar davomida minglab yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatib keldi. Bugungi kunda aeroport orqali o‘nga yaqin nufuzli aviakompaniyalar tomonidan muntazam qatnovlar yo‘lga qo‘yilgan. Joriy yilning o‘zida aeroport tomonidan jami 126 milliard so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilib, mazkur ko‘rsatkich 2025-yilning mos davridagiga nisbatan 31 foizga o‘sdi.

Jadal rivojlanayotgan zamon, ortib borayotgan sayyohlar oqimi va xalqaro hamkorlik ko‘lami mavjud quvvatlarni tubdan kengaytirishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Urganch xalqaro aeroportini kengaytirish va modernizatsiya qilish uchun jami 264 million dollar miqdorida investitsiya mablag‘lari yo‘naltirilgan. Loyiha davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilmoqda.

Loyihaning xususiy sherigi sifatida dunyoning eng ilg‘or, yuqori texnologik va nufuzli aviatsiya xabларidan birini boshqaradigan Janubiy Koreyaning “Incheon International Airport Corporation” kompaniyasi jalb etildi.

Prezidentimiz Xiva va Urganch shaharlari yirik xalqaro sammitlar, oliy darajadagi diplomatik uchrashuvlar, nufuzli iqtisodiy va madaniy anjumanlar o‘tkaziladigan global maydonga aylanayotganini ta’kidladi. Bunday tadbirlarga kelayotgan xorijiy delegatsiyalar uchun yuqori darajadagi qulaylik va xavfsizlikni ta’minlash mamlakatning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiboriga bevosita xizmat qilishi qayd etildi.

Rekonstruksiya doirasida aeroportda “Boeing 747” va “Airbus A350” kabi keng fyuzelyajli havo kemalarini bemalol qabul qilish imkoniyati yaratilmoqda. Bu endilikda dunyoning turli qit’alaridan Xorazmga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, tranzitsiz uzoq masofali parvozlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, rekonstruksiya ishlarining birinchi bosqichida 18 ta havo kemasi turargohi hamda yangi burilish yo‘lagi qurib bitkaziladi. Bundan tashqari, aeroportda zamonaviy chegara nazorati va viza bo‘limlari, shinam biznes-zal, turli savdo va ovqatlanish shoxobchalari, kechayu kunduz ishlaydigan tibbiyot punkti hamda dunyo brendlarini mujassam etgan “Duty free” zonasi tashkil etilmoqda.

Loyiha yakunlangach yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish quvvati soatiga 300 nafardan 1 300 nafargacha ortadi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Urganch tumanidagi “Tillo domor” korxonasining yangi ishlab chiqarish majmuasida sutni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonini ko‘zdan kechirdi.

Mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatida qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahalliy xomashyoni qayta ishlash va ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng imkoniyatlar yaratilgan.

Xorazm viloyati sut yetishtirish salohiyati yuqori hududlardan biri. Mazkur imkoniyatdan samarali foydalanib, chorvachilikni ixtisoslashtirish va sutni sanoat usulida qayta ishlashni kengaytirish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

“Tillo domor” korxonasining umumiy qiymati 11 million dollar bo‘lib, yiliga qariyb 100 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega. Korxona Bolgariyadan keltirilgan zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlangan.

Bu yerda pishloq, qaymoq, smetana, tvorog, qatiq, kefir kabi 70 dan ortiq turdagi sut mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Xomashyo har kuni 100 dan ziyod fermer xo‘jaliklari va aholidan xarid qilinadi. Bu, o‘z navbatida, chorvachilik bilan shug‘ullanayotgan aholi uchun barqaror sotuv bozorini yaratishga xizmat qilmoqda.

Korxonada 120 ta ish o‘rni yaratilgan. Ishlab chiqarish majmuasida 100 kilovatt quvvatga ega quyosh panellari ham o‘rnatilgan. Kelgusida yana 100 ta yangi ish o‘rni tashkil etish, mahsulot turlarini ko‘paytirish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda viloyatda 1 200 ga yaqin qayta ishlash korxonalari faoliyat yuritmoqda.

Prezidentimiz mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlab, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, bunday korxonalarni xomashyo bilan barqaror ta’minlash, mahsulot turlari va ishlab chiqarish hajmini oshirish muhimligini ta’kidladi. Mutasaddilarga bu boradagi tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi.

So‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Urganch shahridagi Xorazm ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi hamda uning hududida tashkil etilgan Kasblar shaharchasiga bordi.

Mamlakatimizda mehnat bozori talablariga mos, zamonaviy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada kasbiy ta’limni ish beruvchilar ehtiyoji bilan uyg‘unlashtirish, ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish va dual ta’limni kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Urganch shahrida tashkil etilgan Xorazm ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi ana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Muassasani barpo etish uchun Davlat byudjetidan 72,4 milliard so‘m ajratilgan. 5,2 gektar maydonda 1 100 o‘ringa mo‘ljallangan ikkita o‘quv binosi, 300 o‘rinli yotoqxona, sport zali, 200 o‘rinli oshxona hamda zamonaviy jihozlangan ikkita o‘quv ustaxonasi qurilgan.

Texnikumda Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy va Janubiy Koreyaning ilg‘or ta’lim dasturlari asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Dual ta’lim tizimi nazariy bilimlarni bevosita ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘lash imkonini beradi.

2026/2027 o‘quv yili uchun 11 ta kasb yo‘nalishi bo‘yicha 200 nafar iqtidorli yosh imtihon asosida saralab olingan. Ta’lim jarayoni ish beruvchilar bilan hamkorlikda tashkil etilib, bitiruvchilarning egallagan kasbi bo‘yicha ish bilan ta’minlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Texnikum Xorazm viloyatidagi boshqa kasbiy ta’lim muassasalari uchun ham zamonaviy amaliy baza vazifasini o‘taydi. Hududdagi ta’lim muassasalarining qariyb 4 ming 300 nafar o‘quvchisi bu yerdagi ustaxona va laboratoriyalarda amaliyot o‘taydi. Bunday ilg‘or kasbiy mahorat texnikumlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa hududlarda ham bosqichma-bosqich tashkil etish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari muassasa hududidagi Kasblar shaharchasini ham ko‘zdan kechirdi. Bu yerda yoshlarning qiziqishi va qobiliyatini erta aniqlash, ularni muayyan kasblarga yo‘naltirish uchun sharoit yaratilgan.

Kasblar shaharchasida “O‘zing yasab ko‘r” tamoyili asosida o‘quvchilar turli zamonaviy uskunalar bilan bevosita ishlab, amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi. Transport va logistika, sanoat va qurilish, servis, qishloq xo‘jaligi hamda “yashil” energetika kabi mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar qamrab olingan.

Majmua yirik ish beruvchi korxonalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bu yoshlarni kasbga yo‘naltirishdan tortib, ularga amaliy ko‘nikma berish va kelgusida bandligini ta’minlashgacha bo‘lgan yagona tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Munosabat

BARQAROR TARAQQIYOT IFODASI

Bugun Xorazm vohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari, yangi ishlab chiqarish korxonalarining barpo etilishi, zamonaviy infratuzilmaning rivojlanishi va yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hududning yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘yayotganidan dalolat beradi.

Quvonarlisi, mazkur jarayonlarda iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda aholi bandligi, yigit-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish va insonlar uchun munosib sharoit yaratish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, Urganch xalqaro aeroportida amalga oshirilayotgan yangilanishlar Xorazmning iqtisodiy va sayyohlik salohiyatini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aeroport — shunchaki yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatuvchi transport inshooti emas. U hududning tashqi dunyo bilan aloqalarini kengaytiruvchi, sayyohlar va investorlarni jalb etishga xizmat qiluvchi muhim infratuzilma obyektidir.

Xorazm o‘zining boy tarixi, betakror me’moriy obidalari, milliy qadriyatlari va san’ati bilan dunyoga mashhur. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy hamda qulay aeroportning mavjudligi vohaga keluvchi mehmonlar uchun yanada yaxshi sharoit yaratadi. Bu esa turizm bilan bir qatorda xizmat ko‘rsatish, savdo, transport va boshqa sohalar rivojiga ham ijobiy ta’sir etishi tabiiy.

Viloyatda sanoat korxonalarining rivojlanayotgani ham e’tiborga molik jihatlardan. Misol uchun qiymati 11 million dollarlik “Tillo domor” korxonasida 70 dan ortiq turdagi sut mahsulotlari ishlab chiqarilib, 120 ta ish o‘rni yaratilgan va xomashyoni 100 dan ziyod fermer xo‘jaliklari hamda aholidan xarid qilish yo‘lga qo‘yilgan.

Bu loyihaning qadrini faqat ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi yoki yaratilgan ish o‘rinlari bilan emas, balki uning butun bir zanjirga ijobiy ta’siri bilan baholash kerak. Fermer va aholining o‘z mahsulotini sotish uchun bozori tayin. Korxona esa mahalliy xomashyodan foydalanib, raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqaradi. Natija aniq: qo‘shimcha qiymat yaratiladi, aholi daromadi oshadi va mahalliy ishlab chiqarish rivojlanadi.

Bunday korxonalarning ko‘payishi Xorazm iqtisodiyoti uchun juda muhim. Chunki xomashyoni shunchaki sotishdan ko‘ra uni qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida iste’molchiga yetkazish ko‘proq iqtisodiy samara berishi oddiy haqiqat. Shu ma’noda, “Tillo domor”dagi loyiha mahalliy imkoniyatlardan samarali foydalanishning yaxshi namunasi sifatida e’tiborga loyiq.

2

Fraksiyalar hayoti

INSON MANFAATLARI VA FAROVON JAMIYATNING MUSTAHKAM ASOSI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi kutilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko‘rib chiqildi. Muhokamalar davomida qonun loyihalari aholi manfaatlariga qay darajada xizmat qilishi, mavjud muammolarni hal etishga qanday yordam berishiga alohida e’tibor qaratildi.

Tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida moliyaviy jarimalarni qo‘llash tartibini belgilash, ular ustidan shikoyat qilish hamda noqonuniy undirilgan mablag‘larni qaytarishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, yurtimizda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, davlat organlari qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqini amaliy jihatdan ta’minlash hamda davlatning javobgarlik tizimini takomillashtirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu hujjat moliyaviy jarimalarni qo‘llashning yagona, aniq va shaffof tartibini belgilash, moliyaviy sanksiyalarni ixtiyoriy va yengillashtirilgan tartibda ijro etish mexanizmlarini joriy qilishga qaratilgan.

Qonun loyihasida moliyaviy jarima qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlar ustidan yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat yo‘llash, qonunga xilof ravishda undirilgan mablag‘larni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish orqali tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoyalash nazarda tutilmoqda.

Loyihada sud nazoratining samaradorligini oshirish hamda moliyaviy javobgarlikni qo‘llash tartibini yanada yengillashtirish ham belgilanyapti. Bu esa tadbirkorlarni asossiz yoki ortiqcha moliyaviy jazolardan asrashga xizmat qiladi.

3

AQSHDA «MILLAT SHAVKATI» KITOBI TAQDIMOTI

O‘zbekistonning AQSHdagi elchixonasi hamda Nyu-York shahridagi Bosh konsulxonasi tomonidan Filadelfiyada “Vatan Global Alliance” tashkiloti bilan hamkorlikda “MILLAT SHAVKATI” kitobi taqdimoti o‘tkazildi.

Biz va jahon



Tadbirda AQSHdagi o‘zbek diasporasi tashkilotlari a’zolari, turli shtatlarda istiqomat qilayotgan vatandoshlar, Amerika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan o‘zbekistonlik talabalar, yirik tadbirkorlar, keng jamoatchilik vakillari, xorijlik ekspertlar qatnashdi.

Taqdimotda O‘zbekistonning AQSHdagi elchisi Furqat Sidiqov, Oliy Majlis Senati a’zosi Husan Ermatov, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA) bosh direktori Abdusaid Ko‘chimov, “Vatan Global Alliance” rahbari Ozod Soliyev va boshqalar ushbu kitob haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

2

TADBIRKORLARGA QANOT BAG‘ISHLAYOTGAN MULOQOT

“Azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir”. Ulug‘ sohibqiron Amir Temur bobomiz aytgan bu gap bugun yanada balandroq yangramoqda. Prezidentimiz tashabbusi, qo‘llab-quvvatlovlari tufayli tadbirkorning ovozini butun mamlakat eshitayotir, uning loyihalari keng ko‘lamda ro‘yobga chiqmoqda.

Davr nafasi

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan an’anaviy ochiq muloqoti esa biznes oldida turgan muammo va to‘siqlarga barham beryapti. Masalan, butun elimiz diqqat bilan kuzatgan va o‘nlab tadbirkorlarga so‘z berilgan o‘tgan yilgi ochiq muloqotni yodga oling. Aylanmadan olinadigan soliq to‘lovidan QQSga o‘tayotgan korxonalar 1-yil muddatga foyda solig‘i to‘lashdan ozod etildi. Hisobotda xato mavjud bo‘lsa ham, jarima qo‘llanilmaydi, buxgalterlar ish haqining 5 mln. so‘mgacha qismi 6 oygacha soliq to‘lovidan chegirib tashlanadi. Bu nechog‘li qulaylik, imtiyoz ekanini biznes ahli yaxshi tushunadi.

Yoki o‘tgan yil boshidan avgust oyiga qadar soliq idoralari 20 mingdan ortiq tadbirkorlar faoliyatini tekshirib, turli darajadagi xato va kamchiliklarni aniqlagan hamda jami 16 trln. so‘m miqdorida jarima qo‘llagan. Davlatimiz rahbari ochiq muloqot jarayonida jarimani bekor qilib, xato va kamchiliklarni tuzatish uchun ikki oylik vaqt berdi. O‘shanda buni eshitib hamkorlarim beixtiyor qarsak chalgancha o‘rnilaridan turib ketdi. Gap o‘n millionlab mablag‘ ustida bormoqda.

3

MUSTAQILLIKNING MA’RIFIY QUDRATI

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi xalqaro muloqot va madaniy merosni targ‘ib etishning yangi maydoniga aylanmoqda

Teran ildizlar

O‘ttiz besh yil — tarix uchun katta muddat emas. Ammo xalq va davlat taqdirida bu davr butun bir taraqqiyot bosqichini ifodalashi mumkin. O‘zbekiston mustaqilligining 35-yillik sharafli yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, mamlakatimizda nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy hayot, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, ajdodlar merosini o‘rganish va uni dunyoga tanitish borasida ham ulkan o‘zgarishlar yuz berganini ko‘ramiz.

Ayniqsa, keyingi 10-yil mobaynida madaniy merosga munosabat yangi mazmun kasb etdi. Tarixiy yodgorliklarni saqlash, qo‘lyozmalarni tadqiq qilish yoki muzey eksponatlarini namoyish etishning o‘zi endi yetarli emas. Asosiy maqsad — xalqimizning asrlar davomida jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini ilmiy asosda ko‘rsatish, uni zamonaviy usullarda targ‘ib qilish va eng muhimi, kelajak avlodga haqqoniy yetkazish.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ana shu ezgu maqsadlarning amaliy ifodalaridan biridir.

4

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 18-avgust

QADIMIY XORAZMDA YANGI O‘ZBEKISTONNING BUNYODKORLIK VA YANGILANISH RUHI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Prezidentimiz yoshlarni zamonaviy mehnat bozori talab qilayotgan kasblarga sifatli o‘qitish, ta’lim dasturlarini ish beruvchilar ehtiyojiga moslashtirib borish va bunday tajribani boshqa hududlarda ham kengaytirish muhimligini ta’kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Urganch xalqaro aeroporti va Xiva temir yo‘l bekatini bog‘laydigan yangi temir yo‘l liniyasi bilan tanishdi.

Mamlakatimizda transport infratuzilmasini rivojlantirish, turli transport turlarini o‘zaro bog‘lash, aholi hamda sayyohlar uchun qulay qatnov tizimini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xorazm viloyatida amalga oshirilgan mazkur loyiha ham shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Qiymati 225 milliard so‘m bo‘lgan loyiha doirasida Urganch xalqaro aeroporti va temir yo‘l vokzalini bog‘lovchi 11 kilometrlik yangi temir yo‘l liniyasi qurildi. Unda bir bekat, ko‘prik, avtomobil yo‘llari bilan kesishmalar va 25 ta suv o‘tkazish inshooti barpo etildi.

Yangi yo‘nalish orqali yiliga qariyb 650 ming nafar mahalliy va xorijlik sayyohni tashish imkoniyati yaratildi. Xiva va Urganch o‘rtasidagi qatnov vaqti ikki barobar qisqarib, 80 daqiqadan 40 daqiqaga tushadi. 30 ga yaqin yangi ish o‘rinlari tashkil etildi.

E’tiborlisi, aeroport va temir yo‘lni bevosita bog‘laydigan bunday loyiha mamlakatimizda birinchi marta amalga oshirildi. Urganch xalqaro aeroporti — Xiva yo‘nalishida Xitoyda ishlab chiqarilgan “CR200J” elektropoyezdi qatnovi yo‘lga qo‘yilmoqda.

Olti vagondan iborat mazkur elektropoyezd bir vaqtning o‘zida qariyb 400 nafar yo‘lovchini tashish imkoniyatiga ega. U soatiga 160 kilometrgacha tezlikda harakatlanadi. Vagonlarda VIP, biznes va ekonom-klass o‘rinlari, bepul Wi-Fi, elektron qurilmalarni quvvatlash imkoniyati, zamonaviy konditsioner va isitish tizimlari mavjud. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ham zarur sharoitlar yaratilgan.

Davlatimiz rahbari yangi elektropoyezdda Xiva shahriga keldi.

Xivada Prezidentimiz Urganch xalqaro aeroporti va Xiva temir yo‘l vokzalini bog‘laydigan yo‘nalishda qatnovga qo‘yiladigan yangi trolleybuslarni ham ko‘zdan kechirdi.

Joriy yil iyul oyida Xitoydan olib kelingan 10 ta trolleybus zamonaviy avtonom harakatlanish tizimi bilan jihozlangan bo‘lib, elektr tarmog‘iga ulanmagan holda ham 100 kilometrgacha yo‘l bosishi mumkin.

Har bir trolleybus 87 nafar yo‘lovchiga mo‘ljallangan. Ularda nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar va bolali yo‘lovchilar uchun qulayliklar, “USB” va “Type-C” portlari, ichki va tashqi kuzatuv kameralari o‘rnatilgan. Shuningdek, haydovchi holatini kuzatish, harakat yo‘lagidan chiqib ketishdan ogohlantirish va avtomatik yong‘in o‘chirish kabi xavfsizlik tizimlari mavjud.

Ushbu zamonaviy transport vositalarini olib kelish tashabbusi Prezidentimizning o‘tgan yilgi Xorazm viloyatiga tashrifi davomida ilgari surilgan edi.

Davlatimiz rahbari transport turlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish aholi va sayyohlar uchun qulaylik yaratish, yo‘lga ketadigan vaqtni qisqartirish hamda hududning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qilishini ta’kidladi. Mutasaddilarga yo‘lovchilar uchun xavfsiz va sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlash bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xiva shahrida tashkil etilgan Lyaonin pedagogika universitetining O‘zbekistondagi filiali va Konfutsiy instituti faoliyati bilan ham tanishdi.

Mamlakatimizda oliy ta’limni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, xorijiy nufuzli universitetlar bilan hamkorlikni kengaytirish va zamonaviy yo‘nalishlarda malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti va Xitoyning Lyaonin pedagogika universiteti hamkorligida amalga oshirilgan loyiha doirasida yangi ta’lim majmuasi barpo etildi. Uni qurish va jihozlash uchun Davlat byudjetidan 140 milliard so‘m mablag‘ ajratildi. Bu yerda 120 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Majmuada 560 o‘rinli o‘quv bloklari, kutubxona, sport zali, 200 o‘rinli madaniyat saroyi va 118 o‘rinli oshxona mavjud. Ikkinchi to‘rt qavatli binoda 628 o‘rinli auditoriyalar hamda 224 o‘rinli talabalar turarjoyi tashkil etilgan.

2026-yil uchun qabul kvotasi 160 nafar etib belgilangan. Kelgusida yillik qabulni 500 nafarga, talabalar sonini esa 2 ming nafarga yetkazish rejalashtirilgan.

Ta’lim kunduzgi va masofaviy shakllarda, o‘zbek, xitoy va ingliz tillarida olib boriladi. Bakalavriat bosqichida “Xalqaro xitoy tili ta’limi”, “Turizm boshqaruvi”, “Xalqaro biznes”, “Sun’iy intellekt”, magistraturada esa “Xitoy tili va madaniyatini o‘qitish metodikasi”, “Ta’lim boshqaruvi”, “Sun’iy intellekt va ta’lim texnologiyalari” yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlanadi.

Filial diplomi O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tan olinadi. Iqtidorli bitiruvchilarga Xitoyning yetakchi oliy ta’lim muassasalarida grant asosida o‘qishni davom ettirish va nufuzli tashkilotlarda stajirovka o‘tash imkoniyati yaratiladi.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida xitoylik investorlar ishtirokida umumiy qiymati 2 milliard 343 million dollarlik 38 ta yirik loyiha amalga oshirilmoqda. Ularda zamonaviy texnologiyalar va xitoy tilini yaxshi biladigan yuqori malakali mutaxassislarga talab yuqori. Yangi ta’lim muassasasi va Konfutsiy instituti ana shu ehtiyojga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Prezidentimiz ta’lim dasturlarini iqtisodiyot va mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish, talabalarning zamonaviy texnologiyalar va xorijiy tillarni puxta egallashi uchun barcha sharoitlarni yaratish muhimligini ta’kidladi.

Shu yerning o‘zida davlatimiz rahbariga yagona milliy turizm platformasi hamda turizm sohasida tadbirkorlar uchun yaratilayotgan yangi imkoniyat va yengilliklar taqdimot qilindi.

So‘nggi yillarda Xorazm viloyatini kompleks rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, tadbirkorlik va investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

So‘nggi to‘qqiz yilda yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratish uchun viloyatga 7,5 milliard dollar investitsiya kiritildi, 9,7 mingta yangi quvvat ishga tushirildi. Kichik va o‘rta biznes loyihalari uchun 33 trillion so‘mdan ziyod kreditlar ajratildi.

Natijada aholining real daromadlari 2 karra oshdi. Sanoat va qurilishda band bo‘lganlar ulushi 18 foizga, xizmatlar sohasida 55 foizga yetdi. Kambag‘allik darajasi 4,4 foizga tushdi, ishsizlik 2 karra qisqarib, 4,5 foizni tashkil etmoqda. 72 ta mahalla “ishsizlik va kambag‘allikdan xoli” hududga aylandi.

Viloyatning transport va turizm infratuzilmasi ham izchil yangilanmoqda. Oxirgi to‘qqiz yilda 280 ta mehmonxona va mehmon uyi qurilib, mehmonxona fondi 4 barobar oshdi, 11 ta yangi turizm maskani ishga tushirildi. So‘nggi besh yilda xorijiy sayyohlar soni 10 karra ko‘paydi.

Xiva shahridagi “Farovon Khiva Hotel” mehmonxonasida Prezidentimiz ishtirokida Xorazm viloyatidagi yangi loyihalarni ishga tushirish va istiqbolli tashabbuslar qurilishiga start berish marosimi bo‘lib o‘tdi.

— Yangi O‘zbekistondagi islohotlarimizning ilk kunlaridan yangi ish o‘rinlarini yaratish va zamonaviy quvvatlarni ishga tushirishni asosiy yo‘nalish sifatida belgilab olganmiz. Shu maqsadda Xorazm viloyati bo‘yicha ham alohida dastur va qarorlarni tasdiqlab, mablag‘ini ham, mas’ullarini ham aniq belgilab, ishlarni tashkil qilyapmiz, — dedi davlatimiz rahbari.

Agar 2016-yilda Xorazm viloyatiga bor-yo‘g‘i 30 million dollar xorijiy investitsiya jalb qilingan bo‘lsa, 2026-yilda bu ko‘rsatkich 2 milliard dollardan oshmoqda.

Yil boshidan Urganch va Xiva shaharlari, Tuproqqal’a va Urganch tumanlarida kimyo, mashinasozlik, qurilish materiallari va turizm yo‘nalishlarida yangi loyihalar uchun zarur sharoitlar yaratildi. Sanoat uchun 195 gektar yer maydonining toifasini o‘zgartirish, elektr va yo‘l infratuzilmasini yaxshilash uchun 100 milliard so‘m mablag‘ ajratish masalalari hal etildi.

Shuningdek, Mustaqillik bayrami arafasida Urganch xalqaro aeroportidan Xivagacha elektrlashgan temir yo‘l liniyasi foydalanishga topshirildi. Urganch — Xiva pullik avtomobil yo‘li ham ishga tushirilmoqda. Bu mamlakatimizdagi birinchi pullik avtomobil yo‘li bo‘ladi. U orqali Urganchdan Xivaga yetib borish vaqti 45 daqiqadan 20 daqiqaga qisqaradi.

— Bu ishlarimizning davomi sifatida bugun sizlar bilan 176 million dollarlik 12 ta loyihani ishga tushiramiz. Shuningdek, xorijiy hamkorlar ishtirokida barpo etiladigan 7 milliard 424 million dollarlik 15 ta yangi quvvat qurilishiga start beramiz, — dedi Prezident.

Jumladan, Tuproqqal’a tumanida Birlashgan Arab Amirliklaridagi hamkorlar bilan umumiy qiymati 6 milliard dollarlik ekologik aviatsiya yonilg‘isi ishlab chiqarish loyihasi amalga oshiriladi. Loyihaga Xitoyning “Sinopec” kompaniyasi jalb etilgan bo‘lib, yer maydonini tayyorlash va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish ishlari boshlangan.

Slovakiyalik hamkorlar bilan 5 ming gektar qumli yerni o‘zlashtirish va 170 million dollarlik bioetanol ishlab chiqarish korxonasini tashkil etish rejalashtirilgan. Hozirning o‘zida 1,5 ming gektar maydonda amaliy ishlar boshlangan.

Urganch shahrida yaponiyalik hamkorlar bilan 30 million dollarlik 250 o‘rinli mehmonxona va savdo-ko‘ngilochar majmuasi barpo etilmoqda. Uni 2027-yilda to‘liq ishga tushirish rejalashtirilgan.

Saudiyalik hamkor bilan viloyat markazida zamonaviy qozonxona qurilib, 183 ta ko‘p qavatli uy va 37 ta ijtimoiy obyektni issiqlik va elektr energiyasi bilan ta’minlash quvvatlari yaratiladi. Turkiyalik hamkorlar bilan davlat-xususiy sheriklik asosida oftalmologiya klinikasi tashkil etiladi.

Urganch tumanida koreyalik investorlar ishtirokida respublikada ilk bor chiqindilarni yopiq sikl asosida qayta ishlab, 71 megavatt “yashil” energiya ishlab chiqarish loyihasi amalga oshiriladi. Unga 100 million dollar investitsiya kiritiladi.

Shuningdek, Xiva shahriga tutash 26 gektar maydonda 120 million dollarlik “Sahro yulduzi” zamonaviy turistik majmuasi, Urganch tumanida 26 million dollarlik mis sanoati klasteri va 60 million dollarlik optik tolali kabellar ishlab chiqarish korxonasi barpo etiladi.

Al-Xorazmiy shaharchasida 5 ming talabaga mo‘ljallangan zamonaviy universitet, mehmonxona, dam olish va savdo majmualari, Urganch shahrida esa “Investorlar uyi” binosi quriladi.

Umuman, ushbu loyihalar natijasida 6,6 mingta yangi ish o‘rni yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari mazkur loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etayotgan xorijiy hamkorlar va jamoatchilik vakillariga minnatdorlik bildirdi.

Prezident ramziy tugmani bosib, yangi loyihalarni ishga tushirdi va qurilish ishlariga start berdi. Investorlar va faollar bilan samimiy muloqot bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Xiva shahrida barpo etilishi rejalashtirilgan xalqaro turistik shaharcha loyihasi taqdimoti bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda Xorazm viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, sayyohlarga zamonaviy xizmatlar ko‘rsatish va ularning hududda qolish muddatini uzaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oxirgi to‘qqiz yilda viloyatda 280 ta mehmonxona va mehmon uyi qurilib, mehmonxona fondi 4 barobar oshdi, 11 ta yangi turizm maskani ishga tushirildi. So‘nggi besh yilda xorijiy sayyohlar soni 10 karra ko‘paydi.

Yangi turistik shaharcha tarixiy meros va zamonaviy shaharsozlik yechimlarini uyg‘unlashtirgan holda barpo etiladi. Uning me’moriy konsepsiyasini ishlab chiqishda Xorazmning ko‘p asrlik shaharsozlik an’analari, jumladan, 1511-yilda Xiva xonligining ilk poytaxti bo‘lgan qadimiy Vazir shahrining tarixiy tuzilishi va ko‘chalar tarmog‘i asos qilib olingan.

Umumiy maydoni 12,3 gektar bo‘lgan majmuada mehmonxonalar, tarixiy va zamonaviy eksponatlar namoyish etiladigan muzey, milliy va xalqaro taomlar restoranlari, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari joylashadi.

Hududning salmoqli qismi yashil maydonlar va sayr yo‘laklariga ajratiladi. Sharsharali favvoralar va ichki ariqlar tashkil etiladi. Avtoturargohlarda quyosh panellari o‘rnatilgan soyabonlar barpo etilishi ham ko‘zda tutilgan.

Ta’kidlanganidek, Xorazmda transport-logistika va turizm infratuzilmasi izchil rivojlanayotgani sayyohlar oqimining ko‘payishiga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy turistik majmualarni ko‘paytirish, xizmatlar turini kengaytirish va sayyohlarning hududda qolish muddatini uzaytirish muhim ahamiyatga ega.

Yangi shaharcha Ichan-qal’aga tushayotgan turistik yuklamani kamaytirish, sayyohlar uchun yangi yo‘nalish va xizmatlarni taklif etishga xizmat qiladi. Loyiha doirasida minglab yangi ish o‘rinlari yaratilishi, aholi uchun avtomobillar harakatidan xoli yashil dam olish hududlari barpo etilishi ko‘zda tutilgan.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Xiva shahrida yangi barpo etilgan Kongress-xoll, uch yulduzli mehmonxona hamda “Xiva Ichan qal’a” qabullar uyi faoliyati bilan tanishdi.

Mazkur obyektlar davlatimiz rahbarining 2026-yil 30-apreldagi tegishli hujjati asosida barpo etildi. Ularning ishga tushirilishi natijasida qariyb 2 mingta yangi ish o‘rinlari yaratish, yiliga 50 ming nafar sayyohga mehmonxona xizmati ko‘rsatish va xizmatlar eksportini 4 million dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Zamonaviy premium uslub va Xorazm milliy me’morchiligi elementlari uyg‘unligida qurilgan Kongress-xoll xalqaro anjumanlar, biznes-konferensiyalar, hukumatlararo muzokaralar va madaniy forumlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan.

Umumiy maydoni 1,9 gektar bo‘lgan majmuani barpo etish uchun 857 milliard so‘m byudjet mablag‘lari yo‘naltirilgan. Atrofida keng yashil hududlar va xiyobonlar tashkil etilib, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan.

Kongress-xollga tutash hududda xalqaro anjumanlar ishtirokchilari va sayyohlarga qulay sharoit yaratish maqsadida uch yulduzli mehmonxona ham qurildi. Qiymati 169 milliard so‘m, umumiy maydoni 1,6 gektar bo‘lgan loyiha doirasida 60 ta yangi ish o‘rni yaratilgan.

To‘rt qavatli mehmonxonada 310 o‘ringa mo‘ljallangan 156 ta xona, keng vestibyul, resepshn, restoran-bar, bolalar xonasi va terrasa mavjud. Shuningdek, yopiq basseyn, fitnes va vellness hududlaridan iborat sog‘lomlashtirish zonasi tashkil etilgan.

Mehmonxonadan Kongress-xoll binosiga, “Boqiy shahar” tarixiy-etnografik bog‘i va hunarmandlar rastalariga yashil sayr yo‘laklari orqali bir necha daqiqada piyoda yetib borish mumkin.

Davlatimiz rahbari “Xiva Ichan qal’a” qabullar uyini ham ko‘zdan kechirdi. Umumiy maydoni 2 gektar bo‘lgan mazkur majmua rasmiy tadbirlar o‘tkazish va xorijiy delegatsiyalarni qabul qilishga mo‘ljallangan. Loyiha qiymati 260 milliard so‘mni tashkil etadi.

Bino me’morchiligida Xorazmga xos mahobatli yog‘och o‘ymakorligi ustunlari, ganchkorlik san’ati, ko‘k va firuza rangli koshinlardan keng foydalanilgan. Qabullar uyi atrofida vohaning boy tarixini aks ettiruvchi fotoko‘rgazmalar va milliy hunarmandchilik ustaxonalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Shu yerning o‘zida davlatimiz rahbari Xorazm viloyati jamoatchiligi vakillari bilan samimiy muloqot qildi. Suhbatda keyingi yillarda vohada ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlar, odamlarning turmush tarzi va tafakkuridagi yangilanishlar haqida so‘z bordi. Qadimiy Xorazm zaminida Yangi O‘zbekistonning bunyodkorlik, taraqqiyot va yangilanish ruhi tobora yaqqol namoyon bo‘layotgani ta’kidlandi. Viloyatning boy tarixi va an’analarini asrab-avaylagan holda uni zamonaviy, obod va farovon hududga aylantirish yo‘lidagi ishlar izchil davom ettirilishi qayd etildi.

Prezident ushbu majmualardan samarali foydalanish, Xivada yirik xalqaro tadbirlarni ko‘paytirish, sayyohlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Ahmadjon SHOKIROV,
O‘zA maxsus muxbirlari.

AQSHDA «MILLAT SHAVKATI» KITOBI TAQDIMOTI

1

“MILLAT SHAVKATI” kitobida aks etgan asosiy g‘oyalar, avvalo, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida so‘nggi o‘n yil davomida O‘zbekistonda amalga oshirilgan keng ko‘lamli hamda ortga qaytmas islohotlarning mazmun-mohiyatiga bag‘ishlangani aytildi.

Bugun mamlakat iqtisodiyoti, davlat va jamiyat boshqaruvi, ta’lim, ilm-fan, madaniyat, ijtimoiy himoya hamda tashqi siyosat sohalarida kuzatilayotgan tub o‘zgarishlar davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasining amaliy natijasi ekani alohida ta’kidlandi.

Aytilganidek, Prezidentimizning siyosiy irodasi, strategik qarashlari va bevosita tashabbuslari tufayli o‘n yil avval tasavvur qilish mushkul bo‘lgan ko‘plab yutuqlar bugun O‘zbekiston uchun yangi voqelikka aylandi.

“Inson qadri uchun” tamoyili asosida davlat idoralarining xalqqa xizmat qilishi, aholi bilan ochiq muloqotni kuchaytirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirish, yoshlar va xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylandi.

Islohotlar natijalari nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarda, balki fuqarolarning qadr-qimmati, ertangi kunga ishonchi va ijtimoiy faolligi ortishida ham namoyon bo‘lmoqda.

Kitobda rahbariyat tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasiga alohida e’tibor qaratilgani ta’kidlandi. Ushbu ezgu maqsad doirasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish, yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish, milliy o‘zlik va tarixiy xotirani mustahkamlash, buyuk ajdodlar merosini chuqur o‘rganish hamda xalqaro miqyosda targ‘ib qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo qilingan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi boy ilmiy, ma’naviy va sivilizatsion merosni tiklash hamda uni jahon jamoatchiligiga keng tanitishga qaratilgan muhim strategik loyihalardan biri sifatida e’tirof etildi. Ushbu tashabbus mamlakatdagi yangilanish jarayonlari milliy qadriyatlar va tarixiy meros bilan uyg‘un ravishda olib borilayotganining yorqin ifodasidir.

Davlatimiz rahbarining Markaziy Osiyoni umumiy tinchlik, barqarorlik va farovonlik makoniga aylantirishga qaratilgan tashqi siyosiy tashabbuslari natijasida mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit shakllangani aytib o‘tildi. Xususan, qo‘shni davlatlar bilan yillar davomida yechimini kutib kelgan chegara masalalarining hal etilishi, o‘zaro ishonchning tiklanishi, savdo-iqtisodiy va transport aloqalarining kengayishi hamda davlat rahbarlari o‘rtasida muntazam muloqotning yo‘lga qo‘yilishi O‘zbekiston Prezidenti boshlab bergan yangi mintaqaviy siyosatning muhim amaliy natijalari sifatida baholandi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi va tashqi dunyoga ochiqligi sezilarli darajada oshdi. Bu jarayon Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan pragmatik, ochiq va manfaatli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat bilan uzviy bog‘liq. O‘zbekistonning AQSH va boshqa yetakchi davlatlar bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ta’lim hamda madaniy-gumanitar aloqalari yangi bosqichga olib chiqilmoqda.

Uchrashuv davomida xorijdagi vatandoshlar, ayniqsa, yoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Yangi O‘zbekiston siyosatida xorijda yashayotgan vatandoshlarimiz mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan muhim intellektual va ijtimoiy resurs sifatida ko‘rilayotgani, ularning Vatan bilan aloqalarini mustahkamlash rahbariyat tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalardan biri ekani qayd etildi.

Tadbirning amaliy natijasi sifatida O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va “Vatan Global Alliance” o‘rtasida axborot va jamoatchilik yo‘nalishlarida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan memorandum imzolandi.

Ushbu hujjat O‘zbekistonda kechayotgan yangilanish jarayonlari haqida AQSH jamoatchiligiga xolis va keng qamrovli axborot yetkazish, shuningdek, xorijdagi vatandoshlar bilan axborot almashinuvini faollashtirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishi ta’kidlandi.

Xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash va vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirishga qo‘shgan alohida hissasi uchun “Vatan Global Alliance” rahbari Ozod Soliyevga “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishoni topshirildi.

Tadbir Prezidentimiz boshchiligida inson qadrini yuksaltirish, Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik muhitini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni keng targ‘ib etish, AQSHdagi vatandoshlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlash hamda Amerika jamoatchilik va ekspert doiralari bilan hamkorlikni kengaytirishga xizmat qildi.

“Dunyo” AA.
Filadelfiya

Surur

OSONMAS EL G‘AMIN YURAKKA ORTMOQ

Osonmas millatning otasi bo‘lmoq,
Osonmas ummonday kamaymay, to‘lmoq.

Osonmas el-yurtning ko‘nglini olmoq,
Osonmas so‘ng uning dilida qolmoq.

Osonmas olovli choponni kiymoq,
Osonmas ko‘ngilni huzurdan tiymoq.

Osonmas yelkani dast tutib bermoq,
Osonmas el uchun tik turib bermoq.

Osonmas ayolning ko‘z yoshin artmoq,
Osonmas el g‘amin yurakka ortmoq.

Osonmas tiklamoq insonning qadrin,
Osonmas olmoqlik dillarning dardin.

Osonmas bayroqni bermaslik qo‘ldan,
Osonmas orqaga qaytmaslik yo‘ldan.

Osonmas baxsh etib kunu tun jonni,
Bunyod etmoq Yangi O‘zbekistonni!

Sayyora SAMANDAROVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.

BARQAROR TARAQQIYOT IFODASI

1

Xorazmdagi yana bir muhim yo‘nalish — yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish masalasi. Urganchdagi Xorazm ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi va Kasblar shaharchasida yoshlarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarni egallashlari uchun yaratilayotgan sharoitlar bu boradagi ishlar izchil davom etayotganini ko‘rsatadi.

Yoshlarga faqat diplom berishning o‘zi yetarli emas. Eng muhimi, ularda mustaqil hayotda va ish jarayonida asqatadigan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Zamonaviy texnologiyalarni bilish, muayyan kasbni puxta egallash, ish beruvchining talablariga javob bera olish — yosh insonning kelajagini belgilaydigan muhim omillardan.

Shu jihatdan, kasbiy ta’lim muassasalarida nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarga katta e’tibor berilayotgani ayni muddao. Ta’lim jarayonining ish beruvchilar ehtiyoji bilan uyg‘unlashtirilishi esa yoshlarning o‘qishni tamomlaganidan keyin o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ish topish imkoniyatini yanada oshiradi.



Aslida, yigit-qizlarga kasb o‘rgatish — bu nafaqat ta’lim sohasi, balki butun jamiyatning kelajagiga kiritilayotgan investitsiya. Hunarli, bilimli va zamonaviy ko‘nikmalarga ega yoshlar qancha ko‘p bo‘lsa, hududning iqtisodiy salohiyati ham shuncha yuqori bo‘ladi.

Xorazmda bugun kuzatilayotgan jarayonlarga yaxlit qarasak, ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘ramiz. Zamonaviy aeroport hududning tashqi aloqalarini kengaytiradi. Yangi ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy faollik va bandlikni oshiradi. Kasbiy ta’lim mehnat bozori uchun malakali kadrlar tayyorlaydi. Bularning barchasi pirovardida aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bugun Xorazmda amalga oshirilayotgan ishlar ana shu jihatlari bilan ahamiyatli. Xalq uchun mehnat o‘rni, yoshlar uchun munosib kasb, tadbirkorlar uchun qulay imkoniyat va hudud uchun zamonaviy infratuzilma yaratilishi barqaror taraqqiyotning muhim shartlaridir.

Eng muhimi, bu ezgu ishlar izchil davom etib, ularning samarasi har bir mahalla, har bir oila hayotida sezilishi kerak. Zero, taraqqiyotning eng asosiy mezoni insonlarning hayot sifati, daromadi va ertangi kunga ishonchi oshishidir.

Xorazmdagi bugungi bunyodkorlik ishlari vohaning ulkan salohiyatini to‘liq namoyon etishiga ishonch uyg‘otadi. Yangi ishlab chiqarishlar, zamonaviy infratuzilma va bilimli, kasb-hunar egasi bo‘lgan yoshlar Xorazmning farovon kelajagi uchun mustahkam poydevordir.

Sayyora ABDIKARIMOVA,
Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.

Belarusda Namangan viloyati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni “Made in Namangan” brendi ostida taqdim etuvchi savdo uylari o‘z faoliyatini boshladi.

Senatorlar — hududlarda

KUN TARTIBIDA DAVLAT DASTURLARI IJROSI VA AHOLI BANDLIGI MASALALARI

Parlament nazorati doirasida hududlarda davlat dasturlari ijrosi, aholini qiynayotgan muammolarni tizimli o‘rganish, qishloq xo‘jaligi sohasidagi loyihalar samaradorligi, suv hamda energiya resurslaridan oqilona foydalanish va aholi bandligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ana shu maqsadda Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi Abdul-hakim Eshmuratov Surxondaryo viloyatining Muzrabot tumanida aholi bilan muloqot qildi va ularni qiynayotgan masalalarni atroflicha o‘rgandi.

Xususan, At-Termiziy nomidagi mahallada o‘tkazilgan fuqarolar qabuli davomida aholi tomonidan suyultirilgan gaz yetkazib berish, kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish, yoshlarni oliy ta’limga tayyorlash, tomorqa yerlarini sug‘orish tizimini yaxshilash kabi qator masalalar yuzasidan 52 ta murojaat bildirildi. Ularning 5 tasi qabul jarayonining o‘zida ijobiy hal qilindi. Qo‘shimcha o‘rganish va amaliy chora-tadbirlarni talab etgan masalalar tegishli mutasaddi tashkilotlarga yo‘naltirilib, ijrosini ta’minlash hamda natijadorligini nazorat qilish belgilandi.

Muloqotda fuqarolarning murojaatlarida ko‘tarilayotgan muammolarni tizimli o‘rganish, ularni qonunchilikda belgilangan tartibda hal etish va aholining davlat organlariga murojaat qilish huquqini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, senator mahallada “Dolzarb 40 kunlik” tadbiri doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, hududda obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, mavjud infratuzilmani tartibga keltirish va mahalla hududining sanitariya holatini yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni ham ko‘zdan kechirdi.

Senatning Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi a’zosi Zokirjon Rahmonov, Farg‘ona viloyati Kengashi kotibiyati mudiri Sh. Karimov hamda xalq deputatlari Quva tumani Kengashi deputatlaridan iborat ishchi guruh tumanda amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va istiqbolli loyihalarni joyiga chiqqan holda o‘rgandi.

Dastlab ular “Karkidon” suv ombori hududida amalga oshirilayotgan infratuzilma va qishloq xo‘jaligi loyihalari bilan yaqindan tanishdi. Bu yerda zamonaviy texnologik yechimlar asosida o‘rnatilgan quyosh panellari, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv sarfini kamaytirishga xizmat qilayotgan tomchilatib sug‘orish tizimi hamda 100 gektardan ortiq maydonda barpo etilgan yangi uzumzorlar holati ko‘zdan kechirildi.

Shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, chuqur qayta ishlash, zamonaviy texnologiyalar asosida saqlash va qadoqlashga ixtisoslashtirilgan “Quva Agrostar” korxonasi faoliyati ham nazardan chetda qolmadi. Korxona ishchilari bilan muloqotda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, mahsulotlar sifatini oshirish, sanitariya va fitosanitariya talablariga rioya etish, shuningdek, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini yuksaltirish masalalari muhokama qilindi.

O‘rganishlar doirasida “Yangi Quva” mahalla fuqarolar yig‘ini “mahalla yettiligi”ning xonadonbay ishlash, fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish, aholi bandligini ta’minlash, yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy muhitni yaxshilash borasidagi ishlari holatiga baho berildi.

Mahallada hokim yordamchisi tavsiyasi asosida ajratilgan imtiyozli kreditlar hisobiga xonadonlarda tashkil etilgan issiqxonalar faoliyati ko‘zdan kechirilib, ularning aholi bandligi va daromadlarini oshirishdagi samaradorligi tahlil qilindi.

Shu mahallada yashovchi fuqaro To‘lqinjon Dehqonov xonadonida yo‘lga qo‘yilgan gulchilik tajribasi o‘rganildi. Ma’lum bo‘lishicha, manzarali gullar va ko‘chatlar yetishtirish, tomorqadan samarali foydalanish hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga mazkur faoliyatdan yiliga 100 mln. so‘mdan ortiq sof daromad olinmoqda. Ushbu tajribani mahalladagi boshqa xonadonlarga ham keng tatbiq etish, gulchilik yo‘nalishini kengaytirish va yetishtirilayotgan mahsulotlarni ichki hamda tashqi bozorlarga chiqarish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, deputatlik nazorati doirasida belgilangan vazifalar ijrosini o‘rganish va aniqlangan masalalarni hal etish yuzasidan amaliy choralarning natijadorligini kuzatib borishga kelishib olindi.

“Xalq so‘zi”.

INSON MANFAATLARI VA FAROVON JAMIYATNING MUSTAHKAM ASOSI

1 Hujjat bilan moliyaviy jarimadan ozod etish yoki uni olti oy davomida bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati ham yaratilmoqda. Qolaversa, sud tomonidan bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilgan jarima summasini qisqa muddatlarda qaytarish, kechiktirilgan taqdirda esa foiz to‘lash tartibini qo‘llash nazarda tutilyapti.

Munozaralar davomida fraksiya a’zolari Nuriddin Jabborov, Atxam Nazirqulov va boshqalar qonun loyihasining ahamiyati hamda zarurati yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi. Undagi ayrim normalar bo‘yicha partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, muhim takliflar ilgari surildi.

— Ushbu qonun loyihasi fraksiyamiz yig‘ilishida atroflicha muhokamadan o‘tkazilib, uning ahamiyati va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi jihatlari chuqur tahlil etildi. Mazkur hujjat huquqbuzarliklarni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish, qo‘llanilgan moliyaviy majburiyatlar o‘z vaqtida to‘lanishini rag‘batlantirish, davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida bu boradagi munosabatlarni soddalashtirishga hissa qo‘shishi bilan ahamiyatlidir, — dedi deputat N. Jabborov.

Savol-javoblardan so‘ng qonun loyihasi fraksiya a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Fuqarolarni yashash manzili va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi soddalashtiriladi

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida fuqarolarni yashash manzili va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini soddalashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ushbu hujjat ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini soddalashtirish orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini yanada kengroq ta’minlashga qaratilgan. Unda uchta muhim yangilik nazarda tutilmoqda. Xususan, oila a’zolari va yaqin qarindoshlari turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazishda uy-joy maydonining ijtimoiy normasini qo‘llash bilan bog‘liq cheklovlar bekor qilinmoqda. Ya’ni er-xotin, ota-ona va farzandlar, buva-buvi va nevaralar, shuningdek, aka-uka va opa-singillar bir-birining uy-joyiga ro‘yxatdan o‘tayotganda xonadon maydoni belgilangan me’yordan kam bo‘lsa ham, bu holat ro‘yxatdan o‘tishga to‘sqinlik qilmasligi nazarda tutilyapti.

Shuningdek, loyihada talabalar turarjoylarida yashayotgan yoshlarga nisbatan alohida huquqiy mexanizm joriy etilib, ularni ro‘yxatdan o‘tkazishda uy-joy maydonining ijtimoiy normasi qo‘llanilmasligi ham belgilanmoqda.

Muhokamalar davomida fraksiya a’zolari qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash davomida mas’ul qo‘mita tomonidan amalga oshirilgan ishlarga alohida e’tibor qaratdi. Ushbu hujjat aholiga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarini yanada qulaylashtirishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ishonchli ta’minlashga xizmat qilishini e’tiborga olib, uni qo‘llab-quvvatladi.

Fraksiya yig‘ilishida moliyaviy jarimalarni qo‘llash tartibini belgilash, ular ustidan shikoyat qilish hamda noqonuniy undirilgan mablag‘larni qaytarishga qaratilgan qonun loyihasi muhokamasi ham qizg‘in kechdi.

Qonun tashabbuskorlari tomonidan aytilganidek, ushbu hujjat bilan moliyaviy jarimalarni qo‘llashning yagona protsessual tartibi belgilanmoqda. Shuningdek, huquqbuzarlikni rasmiylashtirishda dalolatnoma tuzish, uni imzolash, imzolash rad etilgan hollarda videoyozuv yoki xolislar ishtirokida tasdiqlash tartibi aniqlashtirilyapti.

Fraksiya a’zosi Farhod Zayniyev qonun loyihasining ahamiyati yuzasidan o‘z mulohazalarini bildirib, uning qabul qilinishi natijasida moliyaviy jarimalarni qo‘llash bo‘yicha huquqiy aniqlik va huquqni qo‘llash amaliyotining yagonaligi ta’minlanishini, davlat organlari qarorlarining qonuniyligi va asosliligi kuchaytirilishini ta’kidladi.



Muhokamalardan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Intellektual mulk huquqlari himoya qilinadi

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida intellektual mulk obyektlarining fuqarolik muomalasidagi aylanmasini oshirish va patent vakillarining huquqlarini kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Ushbu hujjat intellektual mulk obyektlarining fuqarolik muomalasidagi ahamiyatini yanada oshirish, ulardan samarali foydalanishning huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda patent vakillarining huquq va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, qator qonunlar va kodekslarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Jumladan, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan mulkiy huquqlar garovi bilan bog‘liq munosabatlar aniq tartibga solinib, bunday huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda.

Shuningdek, patent vakillarining intellektual mulk obyektlariga oid shartnomalarni rasmiylashtirish va vakillik qilish bo‘yicha vakolatlari kengaytirilmoqda. Ushbu normalarning qonunchilikda mustahkamlanishi intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonining yanada qulay va tezkor mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli hujjatning muhimligi va zaruratini hisobga olib, uni ma’qulladik.

Yig‘ilishda kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Radioaktiv chiqindilar bilan ishlashda davlat nazorati kuchaytiriladi

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Deputatlar aholi hayoti va sog‘lig‘ini, atrof-muhitni muhofaza etish, radioaktiv chiqindilar bilan muomala sohasini huquqiy tartibga solish va bu borada yagona davlat siyosatini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratdi.

Fraksiya a’zosi F. Sharipov loyiha bilan amaldagi qator qonunchilik normalariga o‘zgartirish kiritish taklif etilayotganini aytib, bu o‘zgartirishlarning zarurati hujjatlarda yetarlicha asoslantirilmaganini ta’kidladi.

Qonun tashabbuskorlari esa atom energetikasini rivojlantirish sharoitida radioaktiv chiqindilar bilan xavfsiz muomala qilish, ularni saqlash va boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish muhim vazifa ekanini bildirdi.

Deputat Imomnazar Tursunovning atom energetikasi sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo‘yicha savoliga javoban, bu yo‘nalishda 2018-yildan buyon Prezidentimiz farmon va qarorlari asosida tizimli ishlar amalga oshirilayotgani aytildi. Xususan, Moskva fizika-texnika instituti filialining ochilishi sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun muhim qadam bo‘lgani urg‘ulandi.

Munozaralarda radioaktiv chiqindilarni saqlash masalasi ham ko‘tarildi. Mutaxassislarning aytishicha, amaldagi radioaktiv chiqindilarni saqlash markazi, asosan, tibbiyot va sanoat tashkilotlarida hosil bo‘ladigan chiqindilarga moslashgan. Atom elektr stansiyalari faoliyati natijasida hosil bo‘ladigan chiqindilar uchun esa stansiya loyihasining o‘zida tegishli saqlash va boshqarish obyektlari nazarda tutiladi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi natijasida esa radiatsiya va yadro xavfsizligi, atom energiyasidan foydalanish, jumladan, radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish yo‘nalishlarida davlat nazorati tizimi takomillashtiriladi.

Yig‘ilishda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Patent vakillari uchun imkoniyatlar kengaymoqda

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “Sirdaryo viloyatining Guliston, Shirin, Yangiyer shaharlari, Guliston, Boyovut, Mirzaobod, Oqoltin, Sardoba, Sayxunobod, Sirdaryo, Xovos tumanlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi palata qarori loyihasi ko‘rib chiqildi.

Taklif etilayotgan chegara o‘zgartirishlariga muvofiq, Guliston tumanidan 527,23 gektar va Boyovut tumanidan 582,0 gektar yer maydonini Guliston shahri tarkibiga hamda Boyovut tumanidan 638,77 gektar yer maydonini Shirin shahri tarkibiga o‘tkazish nazarda tutilmoqda.

Guliston va Shirin shaharlari viloyatdagi aholi eng zich joylashgan hudud hisoblanib, chegaralarning kengayishi shaharda aholi zichligini kamaytirishga, transport qatnovini yaxshilashga, hududda yirik loyihalar uchun zamin yaratib, xorijiy va mahalliy investitsiyalar oqimini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, hududda yangi sanoat zonalari, texnoparklar va yuqori texnologiyali korxonalar tashkil etishga, qurilish, xizmat ko‘rsatish va sanoat sohalarida o‘n minglab yangi ish o‘rinlari yaratilib, aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashga sharoit yaratadi.

Navbatdagi masala — intellektual mulk obyektlarining fuqarolik muomalasidagi aylanmasini oshirish va patent vakillarining huquqlarini kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasi bo‘ldi.

Fraksiya a’zosi Navro‘zbek Yusupov ushbu hujjatning ahamiyati va zarurati haqida to‘xtalib, uning qabul qilinishi intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlardan foydalanish imkoniyatlarini va patent vakillarining huquqlarini kengaytirishga hissa qo‘shishini qayd etdi.

Muhokamalar yakunida har ikkala masala ham deputatlar tomonidan ma’qullandi.

“Xalq so‘zi”.

TADBIRKORLARGA QANOT BAG‘ISHLAYOTGAN MULOQOT

1 Chunki jamoamizda 400 nafardan ortiq xotin-qizlar ishlayapti, bir yillik aylanmamiz 30 milliard so‘mdan ortiq. O‘zingiz o‘ylang, agar jarima undirilsa, daromadning qanchasini yo‘qotamiz. Bu ishchilar manfaatdorligiga nechog‘li zarar degani.

Trikotaj mahsulotlarimizni o‘nlab davlatlarga eksport qilyapmiz. Daromad ham shunga yarasha va birgina soliq to‘lovi hajmini ixtiyorimizdagi ikki korxona misolida oladigan bo‘lsam, 1 milliard so‘mdan oshadi. Davlatimiz rahbari tashqi bozorlardagi tebranishlar, logistikadagi uzilishlarni nazarda tutgan holda eksport bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik uchun jarimalarga moratoriy e’lon qildi. Shuningdek, sanoat infratuzilmasini yaxshilash xarajatlarini soliq bazasidan chegirib tashlash ham ta’kidlandi. Bu biz kabi ishlab chiqarishni uzluksiz takomillashtirib borayotgan korxonalar uchun qo‘shimcha quvvat bag‘ishlaydi.

Davlatimiz rahbari mehmonxona biznesi bilan shug‘ullanishga kirishgan tadbirkorlar uchun qator imtiyoz va subsidiyalar berilishini ham ta’kidladi. Shuningdek, Prezidentimiz mahalliy mehmonxonalar va oilaviy mehmon uylari o‘rtasida tanlov o‘tkazishni taklif qildi. Tanlovning mukofot jamg‘armasi 1 million AQSH dollarini tashkil etadi. Beixtiyor shu sohaga ham qo‘l ursakmikin, degan fikrga bordik.

Davlat sheriklik asosida bog‘chalar qurish, xususiy tibbiyot yo‘nalishini qo‘llab-quvvatlash masalasi ham davlatimiz rahbari e’tiboridan chetda qolmadi. Bog‘cha qamrovi 70 — 80 foizdan past bo‘lgan respublikaning 80 ta tumanida tadbirkorlar yer uchun ijara to‘lovi 30-yil davomida undirilmaydi,



ularga davlat bog‘chasida har bir bolaga nazarda tutilgan xarajatlarning yarmi miqdorida subsidiya beriladi, deyildi. Qani ayting-chi, bunday moliyaviy imtiyoz dunyoning qaysi mamlakatida bor?! Shuning o‘zi keyingi bir yil ichida o‘n minglab yangi biznes vakillarining paydo bo‘lishiga sharoit yaratdi. Mamlakat yalpi ichki mahsulot ulushi 150 milliard AQSH dollaridan oshayotgan bo‘lsa, unda davlatimiz rahbari siyosatiga tayanayotgan kattayu kichik azmi qat’iy, shijoatli kishilarning ulushi katta.

“Chegara hududlarda klinika, reabilitatsiya markazi, mehmonxona va laboratoriyalarni o‘z ichiga olgan tibbiyot klasterlari tashkil etiladi. Ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun 200 million AQSH dollari miqdorida imtiyozli kredit liniyasi ochiladi. Va ularga ajratiladigan kreditlar ham imtiyozli shartlarda bo‘ladi”. Bundan roppa-rosa bir yil ilgari Prezidentimiz aytgan bu takliflar bugun aholi salomatligini yaxshilashga, turmush darajasini ko‘tarishga va yana yuqori haq to‘lanadigan yangi ish o‘rinlari yaratishga olib keldi.

Kichik biznes uchun amalda bo‘lgan jarimalar 3 baravar kamaytirilgani, raqamlashtirish ustuvorligiga tayangan holda “15 daqiqada biznes boshlash” tamoyili joriy etilishi, ko‘chat, mineral o‘g‘itlar, poyabzal, chorva ozuqasi kabi mahsulot toifalari uchun sanitariya, veterinariya va karantin nazoratida bo‘lgan 32 toifadagi mahsulotlar uchun muvofiqlik sertifikati bekor qilinishi... Qisqacha aytganda, 2025-yilgi ochiq muloqot tadbirkorlarni yanada ruhlantiradigan, ularga moliyaviy quvvatga aylanadigan platforma yaratilishiga olib keldi. Atrofiga mingdan ortiq xotin-qizlarni birlashtirgan tadbirkor ayol sifatida buni o‘z faoliyatimda his etdim.

Bu yilgi ochiq muloqot Xorazmda bo‘larkan deyishgach, yuragim tez-tez ura boshladi. Qaysi kuni, qachon borish kerak?.. Jamoamiz nomidan davlatimiz rahbariga “Sizga katta rahmat!” deya ayta olamanmi, degan hayajon tinchlik bermay qo‘ydi. Urganchga uchyapmanu Rossiya va qo‘shni davlatlardagi hamkorlarim ham tinimsiz qo‘ng‘iroq qiladi. O‘tgan yil biz uchun katta imtiyozlar bergan ochiq muloqot ularni ham qiziqtirib qo‘ygan. O‘ylab qarasam, nafaqat biz kabi tadbirkor ayollar, butun O‘zbekiston, dunyo ahlining nigohi Xorazmda, davlatimiz rahbarining bu galgi uchrashuvlari, uning mazmun-mohiyatida. Menimcha, bu ham O‘zbekiston imiji, Prezidentimizning yuksak diplomatiyaga tayangan xalqchil siyosatlarining xalqaro e’tirofi va yana bu galgi ochiq muloqot o‘tgan yilgidan-da qiziqarli, zalvarli o‘tishidan darakdir. Buni yuragim his etayotir.

Muxlisaxon AKRAMOVA,
“O‘zimizniki” MCHJ rahbari,
“Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni sohibi.

REKLAMA

TELERADIOESHITTIRISHLAR SOHASIDA RADIOCHASTOTALARNI TAQSIMLASH VA YAKKA TARTIBDAGI LITSENZIYALAR BERISH BO‘YICHA TANLOV E’LON QILINADI

Tanlovni o‘tkazuvchi: Axborot faoliyati va ma’lumotlar uzatishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha idoralararo muvofiqlashtirish komissiyasi.

Tanlov o‘tkaziladigan sana: 2026-yil 16-oktabr._

Buyurtmanomalar qabul qilishni boshlash: 2026-yil 18-avgust, soat 9^{00} dan.

Buyurtmanomalar qabul qilishni tugatish: 2026-yil 16-sentabr, soat 17^{00} gacha.

Tanlov o‘tkazish joyi: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi.

Tanlov shartlari: O‘zbekiston Respublikasi hududida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan, teleradio-eshittirishlar va ommaviy axborot vositalari sohasidagi qonun hujjatlari talablariga javob beradigan, buyurtmanoma va ilova qilinadigan hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim etgan yuridik shaxslar tanlovda ishtirok etishi mumkin.

Ma’lumot uchun telefonlar: Komissiya ishchi guruhi — 71-239-84-57; 71-239-81-89.

Buyurtmanomalarni taqdim etish: buyurtmanoma va ilova qilinadigan hujjatlar elektron shaklda (pdf formatda, maks. 15 MB) «cmruz@gov.uz», «mkk@gov.uz», «mkk@exat.uz» elektron pochtalariga yuboriladi.

Batafsil ma’lumotlar bilan «https://gov.uz/ttsa» sahifasida tanishishingiz mumkin.

Lot	Radiochastota nominallari	Uzatkich quvvati	Tarqatish hududi	REV o‘rnatilgan manzil
RAQAMLI TELEESHITTIRISHLAR MULTIPLEKSIDA TELEKANALLARNI TARQATISH(DVB-T2)				
1.*	21-48TVK/470-694 MHz	0,03-5 kW	respublika bo‘yicha	56 ta yuqori va 354 ta kam quvvatli uzatkichlarda
2.*	22 TVK/478-486 MHz	5 kW	Farg‘ona shahri va atrof tumanlari	Farg‘ona RTS
3.*	30 TVK/542-550 MHz	2 kW	Namangan shahri va atrof tumanlari	Nurobod RTS
4.*	37 TVK/598-606 MHz	5 kW	Andijon shahri va atrof tumanlari	Andijon RTS
5.*	45 TVK/662-670 MHz	5 kW	Qo‘qon shahri va qisman Farg‘ona viloyati	Qo‘qon RTS
6.*	35 TVK/582-590 MHz	1 kW	Jizzax shahri va atrof tumanlari	Qo‘ytosh RTS
7.*	42 TVK/638-646 MHz	1 kW	Jizzax shahri va atrof tumanlari	Jizzax RTS
8.*	45 TVK/662-670 MHz	5 kW	Qo‘qon shahri va qisman Farg‘ona viloyati	Qo‘qon RTS
9.*	37 TVK/598-606 MHz	5 kW	Andijon shahri va atrof tumanlari	Andijon RTS
10.*	30 TVK/542-550 MHz	2 kW	Namangan shahri va atrof tumanlari	Nurobod RTS
FM DIAPAZONIDA RADIOKANALLARNI TARQATISH				
11.	88,4 MHz	1 kW	Toshkent shahri va atrof tumanlari	Toshkent RTS-1 (H-180)12.
89,5 MHz		1 kW	Andijon viloyati	Andijon RTS
13.	100,5 MHz	0,5 kW	Samarqand shahri va atrof tumanlari	Cho‘ponota RTS
14.	100,5 MHz	2 kW	Toshkent shahri va atrof tumanlari	Toshkent RTS (H375)
15.**	100,5 MHz	0,2 kW	Navoiy shahri va atrof tumanlari	Navoiy RTS
16.**	102,4 MHz	1 kW	Farg‘ona shahri va atrof tumanlari	Farg‘ona RTS
17.**	106,1 MHz	0,5 kW	Toshkent viloyati	Chorvoq RTS
18.**	106,5 MHz	0,2 kW	Buxoro shahri	Buxoro RTS
19.	106,5 MHz	0,5 kW	Samarqand shahri va atrof tumanlari	Cho‘ponota RTS
20.	106,5 MHz	2 kW	Toshkent shahri va atrof tumanlari	Toshkent RTS (H375)
17.	102,5 MHz	0,25 kW	Jizzax shahri va atrof tumanlari	Qo‘ytosh RTS
18.	102,7 MHz	1,3 kW	Andijon shahri va atrof tumanlari	Andijon RTS
19.	102,7 MHz	1 kW	Navoiy shahri va atrof tumanlari	Langar RTS
20.	102,7 MHz	0,25 kW	Nukus shahri	Nukus RTS
21.	102,7 MHz	0,7 kW	Toshkent shahri va atrof tumanlari	Toshkent RTS-1 (H-180)22.
102,7 MHz		0,25 kW	Urganch shahri	Urganch RTS
23.	102,7 MHz	0,25 kW	Termiz shahri	Uchqizil RTS
24.	103,1 MHz	0,25 kW	Buxoro shahri	Buxoro RTS
29.	106,9 MHz	0,25 kW	Qo‘qon shahri	Qo‘qon RTS
30.	106,9 MHz	0,25 kW	Navoiy viloyati, Zarafshon shahri	Zarafshon RTS
31.	106,9 MHz	0,25 kW	Toshkent viloyati	Nurobod RTS

** tanlovda g‘olib chiqqan teleeshittirish subyektining telekanali «RADIOALOQA, RADIOESHITTIRISH VA TELEVIDENIYE MARKAZI» MChJning raqamli teleeshittirishlar multipleksi tarkibiga shartnoma asosida kiritiladi.*

*** tanlovda g‘olib chiqqan radioeshittirish subyektining radiokanali «RADIOALOQA, RADIOESHITTIRISH VA TELEVIDENIYE MARKAZI» MChJning radiouzatkichlari orqali ijara asosida tarqatiladi.*

2027-yil 1-avgustdan yagona sud amaliyotini shakllantiruvchi Oliy sud Rayosati qarorlarini belgilangan tartibda ochiq e’lon qilish va yangilab borish amaliyoti (“Pretsedentlar” reyestri) joriy etiladi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 18-avgust

MUSTAQILLIKNING MA’RIFIY QUDRATI

1

Merosni saqlashdan — jahonga tanitishgacha…

Markazning vazifasi faqat bir muzey ekspozitsiyasini shakllantirishdan iborat emas. U muzey, ilm-fan, ta’lim, raqamli texnologiyalar va xalqaro hamkorlikni birlashtirgan zamonaviy ilmiy-ma’rifiy platforma sifatida shakllanmoqda.

Bu yerda islom sivilizatsiyasining boy ilmiy va madaniy merosini chuqur o‘rganish, buyuk allomalarimiz hayoti va asarlarini tadqiq etish, noyob qo‘lyozmalar, tarixiy ashyolar va san’at namunalarini aniqlash, ularni ilmiy muomalaga kiritish hamda keng jamoatchilikka zamonaviy vositalar orqali taqdim qilish ustuvor vazifalardan sanaladi.

O‘zbekiston tarixi va ajdodlarimiz merosiga oid minglab qo‘lyozmalar, san’at asarlari, arxeologik topilmalar va boshqa nodir ashyolar bugun dunyoning turli muzeylari, kutubxonalari hamda xususiy kolleksiyalarida saqlanmoqda. Shu bois markaz faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri xalqaro hamkorlikka aylandi.

Prezidentimiz topshiriqlari asosida markaz faoliyatini xorijiy davlatlarda keng targ‘ib etish, yetakchi muzey va ilmiy muassasalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘rnatish, ularning fondlarida O‘zbekiston tarixi bilan bog‘liq manbalarni izlash va o‘rganish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Xorijiy safarlarning har biri ortida ilmiy tadqiqot, yangi manbalarni aniqlash, muzeylar o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish, qo‘shma ko‘rgazmalar, nashrlar va ilmiy loyihalarni yo‘lga qo‘yish kabi aniq maqsadlar turibdi.

Muzeylar o‘rtasidagi yangi ko‘prik

Joriy yilning 19 — 25-iyul kunlari markaz direktori Firdavs Abduxoliqov boshchiligidagi delegatsiyaning Xitoy Xalq Respublikasiga safari ana shunday keng ko‘lamli ishlarning navbatdagi muhim bosqichi bo‘ldi. Gonkong, Pekin va Sian shaharlarini qamrab olgan safar davomida Xitoyning yetakchi muzeylari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va madaniy tashkilotlari rahbarlari bilan muzokaralar o‘tkazildi.

Bunda bir raqamning o‘ziyoq hamkorlik ko‘lamini tasavvur etish imkonini beradi: bugun Xitoyda 7 mingdan ortiq muzeylar faoliyat ko‘rsatadi va ular har yili 600 milliondan ziyod tashrif buyuruvchilarni qabul qiladi. Demak, mazkur mamlakat bilan muzey sohasidagi hamkorlik O‘zbekiston madaniy merosini nafaqat Xitoy, balki butun Osiyo jamoatchiligiga kengroq tanitish uchun katta imkoniyatdir.

Safar davomida Gonkong Saroy muzeyi bilan hamkorlik memorandumi imzolandi. U madaniy merosni muhofaza qilish, restavratsiya, qo‘shma ko‘rgazmalar, ilmiy tadqiqotlar, muzey mutaxassislarining malakasini oshirish va tajriba almashish kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab oldi.

Shensi tarix muzeyi, Gugun — Saroy muzeyi, Xitoy Milliy muzeyi, Imperator Sin Shi Xuandi maqbara-muzeyi va Xitoy Tarix akademiyasi huzuridagi Milliy arxeologiya muzeyi bilan ham amaliy hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi.

Eng muhimi, bu muzokaralar faqat niyatlar bayoni bilan cheklanib qolmadi. 2027-yilda O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilganining 35-yilligi munosabati bilan qo‘shma xalqaro ko‘rgazmalar tashkil etish, kitob-albomlar nashr qilish, ilmiy konferensiyalar o‘tkazish, eksponatlarning raqamli nusxalarini almashish va mutaxassislar stajirovkalarini uyushtirish borasida kelishuvlarga erishildi.

Arxeologiya, restavratsiya, muzeyshunoslik va raqamlashtirish sohalaridagi hamkorlik esa munosabatlarni yanada amaliy mazmun bilan boyitadi.

— Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barpo etilgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining bosh maqsadi xalqimiz yaratgan buyuk sivilizatsiyalar, ularning jahon taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi va boy ilmiy-ma’naviy merosini butun dunyoga namoyish qilishdan iborat.

Ekspozitsiyalarda nafaqat islom sivilizatsiyasi, balki islomgacha bo‘lgan So‘g‘d, Baqtriya, Choch va Xorazm kabi qadimgi sivilizatsiyalar ham munosib o‘rin olgan, — dedi Firdavs Abduxoliqov. — O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi madaniy aloqalar bir necha ming yillik tarixga ega ekani barchamizga yaxshi ma’lum. Buyuk Ipak yo‘li xalqlar o‘rtasidagi ilm-fan va madaniyat almashinuvida muhim o‘rin tutgan. Ishonamizki, Xitoy muzeylari rahbarlari, olim va mutaxassislar bilan hamkorlik aloqalarining yanada mustahkamlanishi tariximizning sirli sahifalarini ochishimizga yordam beradi.

Dunyo bilishi kerak bo‘lgan markaz

Xalqaro hamkorlikning yana bir muhim yo‘nalishi — O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining o‘zi haqida xorij jamoatchiligiga keng axborot berish.

Gonkongda o‘tkazilgan xalqaro taqdimotda markazning ilmiy konsepsiyasi, ekspozitsiya yo‘nalishlari va xalqaro loyihalari haqida batafsil ma’lumot berildi. Tadbirda davlat idoralari, muzey va ilmiy muassasalar, diplomatik korpus hamda xalqaro ekspertlar vakillarining ishtirok etgani markazga qiziqishning tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faqat mamlakatimiz uchun mo‘ljallangan madaniy obyekt emas. U Markaziy Osiyo xalqlarining jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini xalqaro maydonda namoyish etadigan nufuzli ma’rifat maskani bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faqat mamlakatimiz uchun mo‘ljallangan madaniy obyekt emas. U Markaziy Osiyo xalqlarining jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini xalqaro maydonda namoyish etadigan nufuzli ma’rifat maskani bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Xizmat safari doirasida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Gonkong Saroy muzeyi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

— O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrifimiz biz uchun muhim tajriba bo‘ldi. Mamlakatingizda madaniy merosni muhofaza qilish va uni zamonaviy usullarda taqdim etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar katta qiziqish uyg‘otdi. Bugungi kelishuv hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqishiga ishonaman, — dedi doktor Luis Nge.

Ikki ming yillik “armiya” bilan yuzma-yuz

Xizmat safari doirasida dunyodagi mashhur muzey majmualaridan biri — Imperator Sin Shi Xuandi maqbara-muzeyida ham bo‘ldik. Maqsad O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida madaniy merosni o‘rganish, asrash va targ‘ib etish bo‘yicha hamkorlikni yanada mustahkamlash, shuningdek, muzeylar o‘rtasida qo‘shma ilmiy va ko‘rgazma loyihalarini amalga oshirish istiqbollarini muhokama qilish edi.

Muzey rahbariyati mehmonlarga miloddan avvalgi III asrda Sin sulolasi asoschisi, Xitoyning birinchi imperatori Sin Shi Xuandi farmoni bilan yaratilgan mashhur “Terrakota armiyasi” haqida batafsil ma’lumot berdi. Majmua tarkibida 8100 dan ortiq sopoldan yasalgan askarlar, otlar va harbiy arava haykallari saqlanadi. Ushbu noyob yodgorliklar imperator vafotidan keyin ham uning qudratini ramziy jihatdan davom ettirish maqsadida barpo qilingan. Asrlar davomida yer ostida saqlanib kelgan mazkur haykallar 1974-yilda mahalliy dehqonlar tomonidan tasodifan aniqlangan bo‘lib, keyinchalik insoniyat tarixidagi eng muhim arxeologik kashfiyotlardan biri sifatida e’tirof etildi. Bugungi kunda mazkur majmua YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Uchrashuvda Firdavs Abduxoliqov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barpo etilgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati, uning asosiy vazifalari hamda jahonning nufuzli muzeylari va ilmiy muassasalari bilan yo‘lga qo‘yilgan xalqaro hamkorlik loyihalari haqida ma’lumot berdi.

Muzey kuratori, professor Li Gang Imperator Sin Shi Xuandi maqbara-muzeyining tarixi, “Terrakota armiyasi”ning yaratilishi hamda uning jahon madaniy merosidagi o‘rni haqida so‘z yuritdi.

— O‘zbekiston va Xitoy madaniy merosni o‘rganish hamda asrash bo‘yicha mustahkam hamkorlik qilib kelmoqda. Biz O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bilan ilmiy va muzey sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishdan mamnunmiz, — dedi professor Li Gang.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi direktori, akademik Farhod Maqsudov ham ikki xalq tarixi chuqur ildizlarga ega ekanini, ushbu boy merosni ilmiy jihatdan o‘rganishda olimlar o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidladi.

Uchrashuv yakunida Imperator Sin Shi Xuandi maqbara-muzeyi rahbariyatiga O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan nashr etilgan kitob-albomlar tantanali ravishda taqdim qilindi.



Jahon muzeylarida O‘zbekiston madaniy merosi

Xalqaro safarlarning eng mas’uliyatli yo‘nalishlaridan biri xorijiy muzey va xususiy kolleksiyalarda saqlanayotgan O‘zbekistonga oid madaniy boyliklarni aniqlashdir.

Xitoy safari davomida muzey fondlari va xususiy to‘plamlardagi So‘g‘d sivilizatsiyasi hamda O‘zbekiston tarixi bilan bog‘liq qator nodir ashyolar o‘rganildi. Ularning kelib chiqishi, ilmiy qimmati, saqlanish holati va kelgusida qo‘shma ko‘rgazmalarda namoyish etish imkoniyatlari muhokama qilindi. Endi ularni xalqaro ekspertlar ishtirokida chuqur ilmiy ekspertizadan o‘tkazish, kataloglashtirish, kelib chiqish tarixini o‘rganish va markaz ekspozitsiyasi uchun ahamiyatli bo‘lgan namunalar bo‘yicha tegishli imkoniyatlarni ko‘rib chiqish rejalashtirilgan.

Bugun dunyoning turli nuqtalarida saqlanayotgan O‘zbekistonga oid madaniy boyliklarni izlash, ular haqida yagona ilmiy ma’lumotlar bazasini shakllantirish, raqamli nusxalarini olish va ilmiy muomalaga kiritish katta ahamiyatga ega.

Masalan, Xitoy Milliy muzeyida saqlanayotgan So‘g‘d karvonboshisining toshtobuti sayyohlarning e’tiborini jalb qiluvchi asosiy eksponatlardan biri sanaladi. Xitoyning Tan sulolasi davriga tegishli bo‘lgan bu toshtobutda VI-VII asrlarda yashagan, Xitoy bilan muntazam savdo aloqalarida faol ishtirok etgan so‘g‘d savdogari dafn qilingan. O‘tgan asrning o‘rtalarida topilgan bu topilma o‘z davrida juda katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan. Ushbu tobut Xitoyga



xos bo‘lmagan uslubda ishlangani va bezatilgani olimlarning e’tiborini tortgan. Keyinchalik, undagi uslub, bezaklar, belgilar aynan so‘g‘diylar madaniyatiga oidligi o‘z isbotini topgan. Mazkur artefakt ming yillar muqaddam ham Markaziy Osiyo va Xitoy xalqlari o‘rtasida savdo va madaniy aloqalar muntazam yo‘lga qo‘yilganidan darak beradi.

Xitoy muzeylarida saqlanayotgan qadimgi So‘g‘d madaniyatiga oid kiyimlar va mato parchalari, sopol va metall idishlar, qadimiy haykalchalar, hujjatlar va qo‘lyozmalar hali bizga noma’lum bo‘lgan qanchadan-qancha sirlarni o‘z bag‘riga yashirib yotibdi. Kelgusida hamkorlikdagi loyihalar doirasida ko‘plab yangiliklar, kashfiyotlar yuzaga chiqishiga shubha yo‘q.

Ilmiy muloqot ham hamkorlikning bir qismi

Markazning xalqaro nufuzi faqat muzeylar bilan imzolangan hujjatlar yoki taqdimotlar bilan o‘lchanmaydi. Uning olim va mutaxassislari xalqaro ilmiy maydonda qanchalik faol ishtirok etayotgani ham muhim mezondir. 26 — 29-iyul kunlari Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida ICESCOning mintaqaviy vakolatxonasi hamda Istiqbolni rejalashtirish va sun’iy intellekt markazi hamkorligida o‘tkazilgan xalqaro anjuman bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

ICESCOga a’zo yigirmadan ortiq davlatlar vakillari qatnashgan tadbir strategik istiqbolni rejalashtirish, davlat boshqaruviga zamonaviy prognozlash usullarini joriy etish va global o‘zgarishlarga tayyor turish masalalariga bag‘ishlandi.

Ushbu anjumanda markaz nomidan “Sun’iy intellekt davrida islom sivilizatsiyasi: merosni asrash, raqamli transformatsiya va xalqaro hamkorlik” mavzuida ma’ruza qilish imkoniga ega bo‘ldim.

Bugun madaniy merosni muhofaza qilish deganda faqat qo‘lyozmani maxsus haroratda saqlash yoki eksponatni muzey vitrinasiga joylashni tushunish kamlik qiladi. Noyob qo‘lyozmalarning xalqaro bozorlarda bo‘laklarga ajratib sotilishi, ijtimoiy tarmoqlarda tarixga oid noto‘g‘ri ma’lumotlar tarqalishi, turli mafkuraviy talqinlar va islomofobiya kabi muammolar madaniy meros sohasi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ularni bir davlat yoki bir muzeyning o‘zi hal qila olmaydi. Bu xalqaro hamkorlik, huquqiy himoya, ilmiy ekspertiza, raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni birlashtirishni talab etadigan umumiy mas’uliyatdir.

Ayniqsa, sun’iy intellekt imkoniyatlari yaqin kelajakda qo‘lyozmalarni raqamlashtirish, katta hajmdagi matnlarni tahlil qilish, restavratsiya jarayonlariga ko‘maklashish va qadimiy asarlarning turli tillarga tarjimasi muhim vositaga aylanishi mumkin. Lekin bir tamoyil o‘zgarmasligi kerak: texnologiya olimning o‘rnini egallamaydi. U olimning ishonchli yordamchisi bo‘lishi lozim.

Mazkur safar kunlarida Icherishahar yodgorlik majmuasi, Nizomiy Ganjaviy nomidagi Ozarbayjon davlat adabiyot muzeyi, Haydar Aliyev markazidagi uchrashuvlar ham nihoyatda samarali, mazmunli kechdi.

Xususan, Icherishahardagi Adabiyot muzeyida ikki xalqning adabiy aloqalariga oid ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

— O‘zbekiston va Ozarbayjon davlat rahbarlarining tashabbusi bilan mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari kundan-kunga rivojlanib bormoqda, — dedi Adabiyot muzeyi direktori, akademik Rafail Husaynov. — Ayniqsa, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy singari buyuk shoirlarimiz ana shu do‘stlikning tamal toshini mustahkamlab ketishgan. Bugun ularning merosi nafaqat turkiy xalqlar, balki jahon adabiyotining bebaho javohirlari sanaladi. Biz ana shunday buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib etishda juda ko‘p harakat qilishimiz, yangi loyihalarni ishga solishimiz lozim. O‘ylaymizki, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bu boradagi ishlarni amalga oshirish uchun barcha shart-sharoit mavjud.

Mustaqillik bergan imkoniyat

O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligi arafasida bu jarayonlarga nazar tashlar ekanmiz, bir muhim haqiqatni yanada teran anglaymiz: milliy merosni asrash ham mustaqillikning eng katta ma’naviy ne’matlaridan biridir. Mustaqil davlatgina tarixiga o‘z nuqtayi nazaridan qaraydi. Allomalarini o‘zi tadqiq qiladi. Merosini o‘zi qadrlaydi va uni jahonga munosib tarzda taqdim etadi.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ana shu ma’nodagi katta g‘oyaning amaliy ifodasidir. Bu markaz — faqat bino emas. U tarix bilan bugunni, O‘zbekiston bilan dunyoni, ajdodlar merosi bilan kelajak avlodni bog‘laydigan ma’rifiy ko‘prikdir. Har bir xorijiy tashrif, har bir yangi hamkor, muzey fondidan topilgan har bir tarixiy ashyo, ilmiy anjumanda yangragan har bir ma’ruza shu katta maqsadning bir bo‘lagidir.

Xorijiy muzeylar bilan tuzilgan kelishuvlarni izchil amalga oshirish, dunyo kolleksiyalaridagi O‘zbekistonga oid boyliklarni izlashni davom ettirish, ularni raqamlashtirish, ilmiy kataloglar yaratish, qo‘shma ko‘rgazma va tadqiqotlarni ko‘paytirish zarur. Zero, madaniy meros — o‘tmish haqidagi xotiragina emas. U davlatning dunyodagi ma’naviy qiyofasini belgilaydigan ulkan kuchdir.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi esa bugun Yangi O‘zbekistonning ana shunday ezgu g‘oya va tashabbuslarini xalqaro maydonga olib chiqayotgan maskanga aylanmoqda.

Ishonchimiz komilki, bugun qo‘yilayotgan qadamlar, amalga oshirilayotgan xalqaro tashriflar, ilmiy ekspeditsiyalar va muloqotlar yaqin yillarda yanada salmoqli natijalar beradi. Yangi topilmalar, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va hamkorliklar orqali xalqimizning buyuk sivilizatsion merosi dunyoga yanada teran va haqqoniy tanitiladi. Shu orqali mustaqillikning ma’rifiy qudrati yanada oshib boraveradi.

Rustam JABBOROV
(“Xalq so‘zi”).

E’tirof

SAMARQAND — «BUTUNJAHON HUNARMANDLAR SHAHRI»

Samarqandda o‘tkazilgan “Silk Road Bazar” hunarmandlik mahsulotlari ko‘rgazmasi doirasida shaharga Jahon hunarmandlar kengashi (World Crafts Council — WCC) tomonidan “Butunjahon hunarmandlar shahri” (World Craft City) maqomi berildi. Bu qadimiy Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasi bo‘lgan Samarqand hunarmandchiligining bir necha ming yillik an’ana va qadriyatlari e’tirofi hamda bugungi hunarmandlar mehnatiga berilgan yuksak baho hisoblanadi.

— Mazkur maqom shaharning xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshiradi, — dedi Jahon hunarmandlar kengashi prezidenti Saad Hani al-Qaddumiy. — Bu sizning shahringizga xorijiy sayyohlar oqimi yanada ko‘payadi, hunarmandlar uchun yangi bozorlar ochiladi, zamonaviy hunarmandchilik rivojlanadi, degani.

Ta’kidlash joizki, kengash tomonidan 2019-yilda Qo‘qon shahri, 2022-yilda Buxoro va Marg‘ilon, undan keyin Rishton, Shahrixon va Shahrisabz shaharlariga “Butunjahon hunarmandlar shahri” maqomi berilgan. Samarqand yurtimizdan bu maqomga erishgan yettinchi shahar hisoblanadi. Ayni paytda dunyo bo‘yicha 83 ta shahar “Butunjahon hunarmandlar shahri” deb e’tirof etilgan.

Samarqand shahriga berilgan maqom turizm, investitsiya va mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqish uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi.

Abdulaziz YO‘LDOSHEV
(“Xalq so‘zi”).

Ta’lim

IJOD MAKTABI BITIRUVCHILARI 100 FOIZ TALABA BO‘LDI

Guliston shahridagi Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabida to‘rt yildirki, bitiruvchilar 100 foiz oliy ta’lim talabasi bo‘layotir.



E’tiborlisi, joriy yilgi 39 nafar bitiruvchidan 10 nafari maksimal —189 ballni qo‘lga kiritdi. Ulardan 24 nafari davlat granti asosida o‘qishga qabul qilindi.

— Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan ijod maktablari o‘quvchilarning o‘zlari tanlagan ijodiy sohaning yetuk mutaxassislari bo‘lish orzusiga yetishida juda katta imkoniyat bo‘lib xizmat qilayotir, — deydi Oliy Majlis Senati a’zosi, Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi direktori Pokiza Axmedjonova. — Xususan, ijod maktabimizda ham ana shunday iste’dodli yoshlar o‘qimoqda. Ular chuqur ilm olish bilan birga, turli fan hamda ijodiy to‘garaklarda tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini oshiradi.

Ayni paytda ijod maktabining 3 nafar bitiruvchisi “TOP — 100” ta universitet qatoridagi xorijiy OTMda ta’lim olmoqda. Joriy yilgi bitiruvchi Zulhayo Mingboyeva 2026-yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibi bo‘ldi. Ikki yildirki, maktabning drama to‘garagi — “Turon” maktab teatri respublika tanlovida eng oliy o‘rinni egallab kelmoqda.

Ahmadali ShERNAZAROV
(“Xalq so‘zi”).

«Xalq so‘zi» va «Narodnoe slovo» gazetalari ta’ririyati jamoasi «Narodnoe slovo» gazetasi xodimi
Igor Viktorovich LARIONOVning
vafoti munosabati bilan mar‘umning oila a’zolari va yaiinlariga chuiur ta’ziya iz’or etadi.

24 — 29-avgust kunlari Toshkentda “Islom sivilizatsiyasi: yangi nigoh, yangi kashfiyotlar” mavzuida xalqaro mediaforum bo‘lib o‘tadi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan.Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-842. 19 427 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan.Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 23.55 Topshirildi – 00.15 1 2 3 4 5 6